



ISAJON SULTON ROMANLARIDA ISHQ TALQINLARI

M.Ergashev,*Nukus DPI o'zbek adabiyoti kafedrsi tayanch doktoranti*E-mail: MaqsudErgashev@umail.uz

Annotatsiya: Maqolada adib Isojon Sulton romanlarida ishq talqinlari, o'zini anglash va sinov motivlarini ilmiy-nazariy jihatdan umumlashtiriladi. Unda adib ijodidagi ishq talqinlarining o'zgachaligi hamda uning poetik mahorati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Shart, qiz quvdi, Xusrav, badiiy to'qima, baxt lolasi.

Inson mohiyatini anglash, uning his-tuyg'u va kechinmalarini ifodalash badiiy adabiyotning bosh omillaridan biridir. Shuning uchun ham, inson ruhiy olami tasviri eskirmaydigan, muhim masala bo'lib qolaveradi. Inson ruhiy olamini tasvirlashda ishq talqinlarining o'rni beqiyos. Bu yuzasidan adib Isajon Sulton romanlarida ishq talqinlar va o'zini anglash motivlaridan mahorat bilan foydalangan.

Adib romanlarida yor tanlash marosimiga alohida to'xtalib o'tgan. Yozuvchi bu marosimlarni sinov motividan foydalangan holda tasvirlaydi. Buni biz "Ozod" romanida Ozod, "Alisher Navoiy" romanida Xusrav va "Bilga xoqon" romanida Ishbara va Bulut obrazlari orqali ko'ramiz. Uch romanda keltirilgan shart turli xilligi adib uslubining betakrorligidan dalolat. Ya'ni zamonlar orasidagi farq shartlarning bir xil emasligini ko'rsatadi. Bunda birinchisi "Ozod" romanida Ozodga qo'yilgan shart "Taqdir lolasini" olib kelish edi:

"Ozod ekan, – dedi. – Yangilikni eshitdingizmi? Xotinlarning og'zida duv-duv gap: Oyding qizga baxt lolasini olib kelaman deb va'da berganmish.

Ha-ya, Ozod ekan, – deb tasdiqladi unisi. – Ha, eshitdim. Ammo hali yosh, novdaday o'spirin-ku, cho'qqilarga chiqa olarmikan? Rostini aytsam, to'yimizdan oldin akangiz ham menga va'da beruvdi. Shahd bilan toqqa ketib, quppa-quruq qaytib keluvdi".¹

Yuqoridagi jumladan baxt lolasini olib kelish murakkab sinov ekanligini bilamiz. Asardagi bosh tugun shu yerdan boshlanadi. Bunda asar mohiyati Ozodning baxt lolasini olib kelish uchun yo'lga chiqishi va shu yo'lda keladigan sinovlarni yengib, komillik sari erishishi va o'zini anglab yetishi bilan ochib beriladi. Bu esa o'z-o'zidan ishq talqinlari orqali Ozodning o'zini tushunib, anglab yetishiga olib kelmoqda. "Ozod" romanidagi baxt lolasini olib kelish shartini bo'yi yetgan qizlarning barchasi o'z qallig'iga bergan bo'lsada uning bajarilishi qat'iy emas edi. Chunki, juda kamdan-kam insonlargini baxt lolasiga erisha olgan.

Umuman olganda yozuvchi romanlaridagi uchta shart ham oson emas. Buni "Bilga xoqon" romanidagi shartdan ham bilishimiz mumkin. Romanda qiz quvdi

¹ Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent: Best book, 2024. – B. 11.



marosimi keltirilgan bo‘lib, unda bo‘yi yetgan yigitlar va qizlar qatnashishgan. Marosimda yigitlar o‘z yorini tanlashda ularni quvlab ushlab sharti qo‘yiladi. Bu shart barcha uchun umumiy bo‘lib, hamma uchun qat‘iy qoida asosida bajarilgan:

“Bulut endigina o‘yindan chiqib kelgan qizlar to‘pi orasidan o‘zi ko‘z ostiga olib qo‘ygan oy yuzli Oygizni topib unga ko‘z qisgan edi, qiz labini burdi. Shunda bu ikkovining ko‘zlari so‘zlashdi...

So‘ng yonida turgan og‘asining otiga bir irg‘ib minib, o‘langga chiqib kelganida budun qiyqirib yubordi.

Bulut Ishbaraning bo‘z otini minib oldi...

Yo‘q, Bulut qizga yetolmadi”.²

Asarda Bulut qizga yetolmaydi, do‘sti Ishbara esa shartni bajarib sevgan qiziga uylanadi. Yozuvchi asarda turkiy qabilalarda azaldan mavjud bo‘lgan bu marosimni keltirilishidan maqsad faqatgina erkaklar emas, ayollarning ham kuch-g‘ayratga to‘la ekanligini ko‘rsatish, shuning bilan birga yor tanlashda bo‘yi yetgan bolalar jismonan baquvvat bo‘lishi ta’kidlangan. Adib yuqoridagi ikki asarda keltirgan shartlar o‘sha davr va hududda yashovchi uylanmoqchi bo‘lgan yigitlar uchun umumiy bo‘lsa, uning yana bir “Alisher Navoiy” romanida Xusravga berilgan shart esa hususiy ya’ni faqat o‘ziga berilgan edi.

Adabiyotshunos olim Hakimjon Karimov ta’kidlaganidek: “Har qanday tarixiy asarda badiiy to‘qima bo‘lishi muqarrardir. Chunki usiz yozuvchi oldiga qo‘ygan maqsadni, g‘oyasini, konsepsiyasini ilgari surishi dushvordir. Sababi xuddi shu narsalarni amalga oshirishga badiiy to‘qima juda qo‘l keladi”.³

Darhaqiqat, har qanday tarixiy asarda badiiy to‘qima ma’lum miqdorda qatnashadi. Bu o‘z navbatida badiiylikni yuzaga chiqarishda va yozuvchi maqsadini ochib berishda eng maqbul yo‘ldir. Adib Isanjon Sulton “Alisher Navoiy” romanida ko‘plab o‘rinlarda badiiy to‘qimalardan foydalanadi. Yosh Alisherning dumli yulduzni ko‘rishi-yu, toshkesar Xusrav bilan uchrashishi fikrimiz dalili:

“– Ismingiz ne? – deb so‘radi Alisher.

Norg‘ul, sodda bu yigitning ishtiyoqi uni xush kelgan edi.

– Xusrav, – dedi yigit...

– U holda, bu aroda Shirin ham bo‘lgaydir, – dedi Alisher ham, “Xamsa”ni eslab.

– Aytsam inonmaysiz, biroq ulusda rostdan ham Shirin degan bir qiz bor. U bilan anchadan beri ko‘z urishtirib yurgaymen. Otam ham rozi, ammo uylanishdan avval menga suv chiqarmoq shartini qo‘ydi”.

² Исажон Султон. Билга хоқон (роман қисса ва ҳикоялар). – Тошкент: Factor bookс, 2022. – Б. 83-85

³ Ҳақимжон Каримов. Истиқлол даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Yangi nashr, 2010. – Б. 291.




Alisher o‘ylanib turib, hamyonida bori – bir necha oltin dinorni chiqarib, yigitga uzatgan edi, u qizarib bo‘zarib, “Olmayman” deya tixirlik qildi...

– Sur chiqargaysiz, – dedi Alisher. – yoxud, agar unga qadar suv chiqsa, to‘yingizga ishlatgaysiz. Tangri baxtingizni bersin!⁴

Asar tarkibida kelayotdan ushbu badiiy to‘qima orqali adib Navoiy obrazini yana bir bor ideallashtiradi. Yozuvchi bu asarda Navoiyning faqat ilmiy faoliyatini yoritib berishdan cheklanib, uning insoniy fazilatlariga ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Bunda muhabbati uchun kurashayotgan Xusrav obrazi orqali ishq talqinlarini yaratib berilgan bo‘lsa, ishq homiysi sifatida Xusravga mablag‘ bergan Navoiyni obrazi gavdalantirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Isajon Sulton. Ozod. – Toshkent: Best book, 2024.
2. Исажон Султон. Билга хоқон (роман қисса ва ҳикоялар). – Тошкент: Factor books, 2022.
3. Исажон Султон. Алишер Навоий. – Тошкент: Adabiyot, 2021.
4. Ҳакимжон Каримов. Истиқлол даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Yangi nashr, 2010.



⁴ Исажон Султон. Алишер Навоий. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – Б. 91.